

# SOCIAL SCIENCE AND INNOVATION

ISSN – 2992-9180

Volume II, Issue 1, Pages:1-4

Jild II, Son 1, Sahifalar: 1-4

- EDUCATION
- HISTORY
- PHILOSOPHY
- PEDAGOGY
- PHILOLOGY
- PSYCHOLOGY

IJTIMOIY FAN VA INNOVATSIYA

СОЦИАЛЬНАЯ НАУКА И ИННОВАЦИЯ

Review

Aziza Tursunmuradova,  
Uzbekistan state world  
languages university,  
independent researcher

Aziza Tursunmuradova,  
O'zbekiston davlat jahon  
tillari universiteti, mustaqil  
izlanuvchi

Азиза Турсунмурадова,  
Узбекский  
государственный  
университет мировых  
языков, независимый  
исследователь

## FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI VA TASNIFI

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarning bir nechtasini taqqoslash orqali yoritib beriladi va ularning o'xhash hamda farqli jihatlari namoyon qilinadi.

**KALIT SO'ZLAR:** frazeologiya, folklore, Bibliya, grek, mifologiya, leksika

## ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ И КЛАССИФИКАЦИЯ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье путем сравнения нескольких фразеологизмов английского и узбекского языков выделены лингвокультурные особенности фразеологизмов, показаны их сходства и различия.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА** фразеология, фольклор, Библия, греческий язык, мифология, лексика.

## LINGUISTIC FEATURES AND CLASSIFICATION OF PHRASEOLOGICAL UNITS

**ABSTRACT:** In this article, the linguistic and cultural characteristics of phraseological units are highlighted by comparing several phraseological units in the English and Uzbek languages, and their similarities and differences are shown.

**KEY WORDS:** phraseology, folklore, Bible, Greek, mythology, lexicon

Frazeologik birliklar ikki va undan ortiq so'zlarning birikmasi bo'lib, ularning ma'nosi alohida olingandagi ma'nosidan farq qiladi. Ular til va nutqda ma'lum bir til egalari guruhi yoki jamiyatining o'ziga xos madaniy va linguistik xususiyatlarini ochib bera oladi. Frazeologik birliklarning linguistik xususiyatlari orqali til egalarining an'analari, qarashlari va qadriyatlari kabi madaniy xususiyatlarini namoyon qila oladi. Frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganish ular qanday qilib madaniy kontekstga joylanishi va jamiyatning madaniy xususiyatlarini namoyon qilish xususiyatini ham sinchiklab o'rganishni talab qiladi. Zero, ushbu birliklarning lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganish ularning tarixiy, geografik, ijtimoiy, diniy, folklor va mifologik ildizlarini, shuningdek madaniy an'analar va marosimlarga aloqadorlik belgilarini tadqiq qilishni ham o'z ichiga oladi. Ularning madaniy xususiyatlarini aniqlash tinglovchi yoki adabiyot o'quvchisiga madaniy konteksti oson aniqlash va til birliklaridan aniq foydalanish imkonini yaratib beradi.

### Asosiy qism.

A.A.Yo'ldoshevning fikricha, leksik va frazeologik birliklar o'rtaсидаги farq yaqqol ko'zga tashlanishi strukturaviy jihatdan emas, qolaversa sematifikunsional, ya'ni uslubiy jihatdan aniqroq namoyon bo'ladi. Yo'ldoshev frazeologik birikmalarda ma'no ko'chma, ya'ni majoziyholatda ifoda etiladi deb hisoblaydi. Bu kabi tushuncha va qarashlar ingliz tilida namoyon bo'ladi. O'zbek tilida ham, ingliz tilida ham frazeologik birliklar xalq tomonidan yaratilgani va ularning muallifi noma'lum bo'lishi, kelib chiqishini

aniqlash oson emasligi ma'lum hisoblanadi. Masalan, Kuninning aytishicha "ingliz tilida ko'pgina frazeologizmlari xalq tomonidan yaratilgan va ularning muallifi noma'lum". Quyidagi misollar va namunalar orqali ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarning tahlilini ko'rishimiz va ikki madaniy muhitning frazeologik birliklar orqali namoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin.

7 raqami har ikkala til egalari tomonidan frazeologik birliklar ko'rinishida qo'llanilinadi. Misol uchun, 7 o'lchab bir kes, ertak va afsonalardagi 7 kun yoki 7 yil, 7 sayyora kabilarni o'zbek tilida uchratamiz va shuningdek, ingliz tilida "the God created the world in 6 days, and rested on the seventh day"- Xudo dunyoni 6 kunda yaratgan av 7 – kunda dam olgan (Bibliya). Ushbu misollar orqali birgina 7 raqami qatnashgan frazeologik birliklar orqali ikki til madaniyatining xususiyatlarini muhokama qilamiz.

Bibliyada 7 raqami 700 dan ortiqroq marotaba takrorlangan va shuning uchun ham bir nechta ingliz tilshunoslari 7 raqamini ilohiylik aralashgan mukammallik ramzi deb hisoblashadi [1]. Misol uchun quyidagi ingliz tilida uchraydigan maqol orqali buni isbotlash mumkin:

*A fool may ask more questions in an hour than a wise man can answer in seven years – ahmoq bir soat ichida bir nechta savollar berishi mumkin lekin dono bir savolga 7 yilda javob beradi.*

Ushbu maqoldagi ma'no tahlili orqali shuni aniqlash mumkinki, dono inson 7 yilda mukammal o'ylan, aniq javob beradi, ya'ni 7 raqami aynan taklif

qilinganidek mukammallik va aniqlik ramzini ifoda etmoqda. Aynan shunga o'xhash holat va ma'no ham o'zbek tilida uchraydi aynan maqollari orasida: "7 o'lchab bir kes". Ushbu maqola orqali aynan shunday mukammallik bir tarafdan namoyon bo'lsa, bir tarafdan o'zbek madaniyatiga oid shoshqoloqlik qilmaslik va o'ylab ish qilishni ham nazarda tutadi. Aynan shoshmaslik va sokinlik o'zbek tili muhitidagi diniy qarashlar va tushunchalarning aksi vazifasini bajaradi. Bundan ko'rinish turibdiki, o'xhash strukturaga qaramasdan, kelib chiqishi turlicha bo'lgan frazeologik birliklar turli madaniy va diniy tushinchalarni namoyon qilishadi.

Shuningdek, bunday tahlillar 2 raqami bilan ham amalga oshirilishi mumkin. Bunda ikki raqami o'zbek tilida turli xil taraflarni va har xillikni ifoda etsa, ingliz tilida esa birlik, yakdillikni ifoda etadi. Buni quyidagi frazeologik birliklar tahlili orqali ko'rishimiz mumkin. "two peas in a pod" ushbu ibora bitta qobiqdagi ikkita loviya ma'nosini anglatadi, ya'ni o'xhashlik ma'nosida keladi. Lekin o'zbek tilida ushbu raqam ba'zi hollarda o'xhashlikni ifodalasa, bazi hollarda xilma – xillikni ifoda etadi. Misol uchun, yuqoridagi ikki raqami ishtirok etgan ingliz idiomasiga ekvivalent sifatida o'zbek tilida quyidagicha ibora ishlatalinadi: "bir olmaning ikkita bo'lagi" yoki "ikki tomchi suvdek". Shuningdek, "ikki qayiqni ushlagan cho'kadi" kabi frazeologik birliklarda esa har xillik, turli yo'nalihschlarni ifoda etadi. Frazeologik birliklar bugungi kundagi globallashuv natijasida ham turli madaniyatlarning o'ziga xos xususiyatlari boshqalariga ham ta'sir o'tkazmay

qolmaydi. Ushbu jarayon esa o'tgan asrlarda ham adabiyotlar ta'sirida ham yuz bergen.

Quyidagi keyingi misollarda esa kundalik hayotda qo'llanilinadigan birikmlarning ingliz va o'zbek tillaridagi farqlari va o'xhash taraflarini namoyon qilamiz:

Ingliz tilida "*kill two birds with one stone*" – "*bir o'q bilan ikki qushni urmoq*" maqola mavjud bo'lib, o'zbek tilidagi "*bir o'q bilan ikki quyonni urmoq*" maqoli bilan ekvivalent bo'la oladi. Ammo maqollardagi o'xhash taraflar bir o'q bilan ikki o'ljani ovlashni nazarda tutsa ham, o'lja va o'q, tosh turlicha obrazlarda berilyapti. "Quyon" va "qushlar" obrazlari, bundan ko'rinish turadiki, ushbu obrazlarning tanlanishi har bir jamiyatdagi kundalik hayotda aynan ov jarayonida qaysi hayvonning ov o'ljasiga aylantirilishi kabi o'ziga xos geografik va tabiiy xususiyatlarini hisobga olishni talab qiladi. O'q va tosh esa tarixiy xususiyat jihatidan va vaqt oralig'i xususidan bir biridan farq qiladi. Aynan buning isboti sifatida ushbu fraza 1600 – yillarga borib taqalishi va grek mifologiyasiga oid ekanligini aytish mumkin. Bundan ko'rinish turibdiki, madaniy jihatdan ingliz tiliga o'zlashgan ushbu frazeologik birlik aslida mifologiyada ishlatilingan va ma'nosи energiya kam sarflab maqsadga erishishni ifoda etgan [4]. shuning uchun ham o'zbek tilidagi iborada o'q so'zi, ammo ingliz tilidagi ekvevalentda esa tosh so'zi ishlatilinmoqda.

### Xulosa

Yuqorida o'rganilgan misollardan shuni xulosa qilish mumkinki, frazeologik birliklar turli madaniyatga aloqadorligi

bilan bir - biridan farq qilishi yoki shuningdek, o'xhash xususiyatlarga ham ega bo'lishlarini aytish mumkin. Bu shuni anglatadiki, frazeologik birliklar kelib chiqishi va qaysi jamiyatga tegishli bo'lishiga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi va nutq kontekstida yuzaga chiqadi. Frazeologik birliklarning linguamadaniy xususiyatlarini tadqiq qilish turli madaniyat orasidagi muloqot jarayonini, shuningdek badiiy adabiyotlar orasida yaxshi tushinilishi va aniq ifodani anglashni yengillashtiradi. Shu xususidan ham, frazeologik birliklarning boy xususiyatlarini o'rghanish va ularni kognitiv jihatlarini ham ochish bu keying tadqiqt jarayonlarining asosi bo'ladi.

#### References:

1. Микешина Л.А.Интерпретация как фундаментальная операция познания // Эпистемология Философия науки, Т XVII , № 3 2008
2. Болдырев Н.Н. Антропоцентрическая сущность языка в его функциях, единицах и категориях // Вопросы когнитивной лингвистики. 2015а. № 1. С. 5-12
3. Шарандин.А.Л.Лексическая грамматика как объект когнитивной лингвистики// 2013 УДК 81'366;81'373 с. 2-10
4. Дэвидсон, Дональд (2001 (1987) ). «Познание собственного разума» перепечатано в изданиях «Субъективное, интерсубъективное, объективное» (стр. 15–38).
5. Mukhittinova, K. A. (2022, August). TECHNICAL AND ECONOMIC CONDITION OF OIL DRILLING FROM THE FIELD OF " MUBARAK OGP" ENTERPRISE. In Multidiscipline Proceedings of Digital Fashion Conference (Vol. 2, No. 4). Нью-Йорк и Кларендон: издательство Оксфордского университета. Первоначально опубликовано в Proceedings and Addresses of the American Philosophical Association, 60 (1987), 441–58. 'Википедия site:wiki5.ru